ROZILIK

Foydalanuvchining shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashga roziligi

Foydalanuvchi (shaxsiy ma’lumot subyekti) o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini taqdim etish qarorini, https://paylov.uz(keyingi o‘rinlarda – Sayt) saytida joylashtirilgan fikr-mulohaza shakllarini to‘ldirish orqali qabul qiladi, ya’ni:

- familiya, ism, otasining ismi, elektron pochta manzili, telefon raqami.

Foydalanuvchi Saytda joylashtirilgan fikr-mulohaza shakllarini to‘ldirib, mazkur Rozilikni shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash (keyingi o‘rinlarda – Rozilik) uchun “Octagram”AJ, STIR: 307993034, manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Kichik Halqa avtomobil Yo‘li ko‘chasi 44/17, ga taqdim etadi. Ushbu jarayon O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 2-iyuldagi № ZRU-547 “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Rozilik quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi: yig‘ish (shu jumladan uchinchi shaxslardan), yozib olish, tizimlashtirish, jamg‘arish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), olish, foydalanish, uzatish (taqdim etish, ruxsat berish), shaxsiylikni yo‘qotish, bloklash, o‘chirish, yo‘q qilish — avtomatlashtirilgan vositalar yordamida yoki ularsiz.

Shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashning maqsadi – Saytda joylashtirilgan fikr-mulohaza shakllari orqali foydalanuvchi murojaatlarini qayta ishlash, foydalanuvchi bilan bog‘lanish, fikr-mulohaza shakllari bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, foydalanuvchilarga texnik yordam ko‘rsatish.

“Octagram” AJ tomonidan olingan shaxsiy ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi hududida saqlanadi va qayta ishlanadi.

Mazkur rozilik tegishli ma’lumotlar yoki hujjatlarni saqlash muddati tugaguniga qadar amal qiladi. Rozilik foydalanuvchi tomonidan istalgan vaqtda yozma ariza yuborish orqali qaytarib olinishi mumkin. Ariza quyidagi elektron manzilga yuboriladi: support@paylov.uz